

KONSTITUTSIYA – YANGI O‘ZBEKISTONNING YO‘L XARITASI

Umariy Muhridin Xusniddin o‘g‘li

Oliy va amaliy matematika kafedresi o‘qituvchisi

E-mail: mumariy@bk.ru

ORCID: 0009-0007-7276-1254

Damira Axmadaliyeva Muhammadali qizi

Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tyutori

E-mail: ahmadaliyevadamiraxon@gmail.com

ORCID: 0009-0000-4367-6228

Nurullayeva Ruxshona Mehriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

E-mail: nurullaevaxshona974@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3200-5477

CONSTITUTION – THE ROADMAP OF NEW UZBEKISTAN

Umariy Mukhriddin Khusniddin o‘g‘li

Lecturer at the Department of Higher and Applied Mathematics

E-mail: mumariy@bk.ru

ORCID: 0009-0007-7276-1254

Damira Akxmadaliyeva Mukhammadali qizi

Tutor of the Department for Coordination of Tutors' Activities

E-mail: ahmadaliyevadamiraxon@gmail.com

ORCID: 0009-0000-4367-6228

Nurullayeva Ruxshona Mehriddin qizi

Student of the Tashkent State University of Economics

E-mail: nurullaevaxshona974@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3200-5477

Annotatsiya. Mazkur maqolada referendum asosida qabul qilingan Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o‘rni, uning Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi asosiy huquqiy hujjat sifatidagi ahamiyati balki davlat xalq irodasini ifoda etayotganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar orqali inson huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini ta‘minlashga, demokratik tamoyillarni mustahkamlashga bo‘lgan e‘tibor yoritiladi. Maqolada Konstitutsiyaning davlat va

jamiyat taraqqiyotini belgilovchi strategik hujjat, ya‘ni “yo‘l xaritasi” sifatidagi ro‘li ochib beriladi hamda uning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga qaratilgan “ Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot qomusi” degan yondashuvni Konstitutsiyaning mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur

hisoblanishi ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi Prezidentimiz qayd etganidek, o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Undagi g'oya va prinsiplar fuqarolik jamiyatini va huquqiy davlatni shakllantirishga asos qilib olingan. Bundan tashqari, ushbu maqolamizda asosiy qomusimizga kiritilgan xalq hokimiyatining real omillari ko'rsatib o'tilgan. Chunki, barchamizga ma'lumki, davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha ishlar siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarning barchasi xalq, inson manfaatlari, uning turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi. Har bir kunimizning baxtli, dasturxonimiz to'kin, xonadonimiz yorug' bo'lishining negizini tashkil etadi. Darhaqiqat, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mavjud bo'lgan moddalar haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan.

Abstract. This article analyzes the role of the New Uzbekistan Constitution, adopted through a national referendum, in the life of society and its significance as the main legal document in building New Uzbekistan. It also highlights the attention given to ensuring human rights, freedoms, and dignity, as well as strengthening democratic principles through the amendments and additions made to the Constitution. The article reveals the role of the Constitution as a strategic document — a "roadmap" — that determines the development of the state and society, and substantiates its importance in the formation of a legal state and civil society. It is emphasized that the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, adopted in the referendum held on April 30, 2023, reflects the approach "New Uzbekistan – the constitution of

development," and that this idea must be deeply integrated into the essence of the Constitution and turned into a fundamental value in practical life. As noted by the President, the Constitution of independent Uzbekistan, in its essence, philosophy, and concept, is a renewed document, with ideas and principles aimed at forming a civil society and a legal state. This article also outlines the real mechanisms of people's power introduced in the updated Constitution. Indeed, it is well known that all political, economic, social, and cultural reforms carried out in our country serve the interests of the people, improving their quality of life. Finally, the article provides brief information about several articles included in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Yangi O'zbekiston, huquqiy davlat, demokratiya, demokratik jamiyat, davlat, fuqarolik, suverenitet, referendum, norma, konstitutsiyaviy tuzum, fuqarolik jamiyati, islohotlar, davlat boshqaruvi, adolat, deklaratsiya, dunyoviy davlat.

Keywords: Constitution, New Uzbekistan, legal state, democracy, democratic society, state, citizenship, sovereignty, referendum, norm, constitutional system, civil society, reforms, state governance, justice, declaration, secular state

Kirish. Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimlarini tubdan yangilashni talab qilayotgan bugungi davrda har bir mamlakat o'z taraqqiyot strategiyasini aniq belgilab olishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda davlat boshqaruvi, jamiyat hayoti va fuqarolarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjat — Konstitutsiya mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Zero, Konstitutsiya jamiyatning siyosiy tizimini, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlar muvozanatini, inson huquq va erkinliklarining kafolatlarini belgilab beruvchi oliy huquqiy me'yorlar majmuasidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi davlat va jamiyat qurishning huquqiy poydevorini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi va 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi aynan shu tarixiy vazifani ado etdi. Asosiy qonun mamlakatning siyosiy barqarorligini ta'minlab, huquqiy davlat qurish jarayonining bosh mezoniga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot konsepsiyasi asosida yangicha mazmun va sifatga ega bo'lgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayon Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirib, uni davlat boshqaruvining zamonaviy tamoyillariga mos holda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'zgarishlar Konstitutsiyani haqiqiy amaliyotda ishlaydigan, jamiyat ehtiyojlariga mos "tirik hujjat"ga aylantirmoqda.

Material va metod. Bugungi globallashtirish jarayonlari sharoitida har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilashi, jamiyat hayotini huquqiy asosda tartibga solishi shuningdek, xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mustahkam qonunchilik tizimiga ega bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Konstitutsiya har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotini belgilab beruvchi oliy huquqiy hujjat hisoblanadi. U davlat tuzumining negizi, hokimiyat tarmoqlarining vakolatlari, jamiyat va shaxs munosabatlarining huquqiy mezonlarini aniqlab beradi. Shuning uchun ham

yurtimizda mustaqil davlat sifatidagi Konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi va mustaqil davlatimizning huquqiy poydevorini yaratdi. Shuning uchun ham mamlakatda Konstitutsiyaning tutgan o'rni va ahamiyati yanada ortib, u mamlakatimiz istiqbolining asosiy yo'l xaritasiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotida tub siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarga ehtiyoj tug'ildi. ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Ushbu asosiy qonun nafaqat davlatning suverenitetini mustahkamladi, balki inson huquq va erkinliklarining daxlsizligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynadi. Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar – qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, fuqarolarning teng huquqliligi, demokratik boshqaruv – davlat va jamiyat hayotining muhim mezoniga aylandi. Mamlakatimiz ushu konstitutsiya asosida 31 yil davomida o'zining huquqiy pozitsiyasini amalga oshirdi. Bugungi rivojlanib borayotgan O'zbekistonning kelajak oldida qo'ygan maqsadlari beqiyos, ushbu maqsadlarni "Yangi O'zbekiston" shiori ostida islohotlar asosida amalga oshiryapdi. Yangi O'zbekiston tushunchasi nafaqat yangilanish, balki yangicha tafakkur, adolatli ijtimoiy muhit, inson manfaatini ustuvor qo'yadigan boshqaruv tizimini anglatadi. Bu jarayonda Konstitutsiya bosh huquqiy tayanch sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki har qanday islohot, yangilanish va rivojlanish kuchli va izchil qonun asosida amalga oshirilmasa, u natija bermaydi va xalqimizga manfaatli bo'la olmaydi. Shu sababli Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi Konstitutsiyada mustahkamlangan tamoyillarga tayanib olib borilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar Konstitutsiyaning ro'lini yanada

kuchaytirdi. Xususan, inson huquqlarini ta'minlash, sud hokimiyatining mustaqilligini oshirish, davlat organlarining xalq oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish, ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan islohotlar asosiy qonunning amaliy hayotdagi ta'sirini yanada chuqurlashtirdi. Endilikda Konstitutsiya faqat qoidalar to'plami emas, balki jamiyat hayotini boshqaruvchi, inson manfaatlariga xizmat qiluvchi tirik huquqiy hujjat sifatida qaralmoqda. Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot konsepsiyasining markazida inson manfaatlari turadi. "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili bugungi konstitutsiyaviy siyosatning asosiy g'oyasiga aylandi. Bu esa fuqarolar huquqlarini ta'minlash, ularning erkin fikrlashi, ijtimoiy himoyasi va davlat boshqaruvida ishtirok etishini kafolatlashni anglatadi. Konstitutsiya orqali davlat inson uchun xizmat qilishi, uning farovonligi uchun mas'ul ekanligi mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi. Shuningdek, Konstitutsiyaning yana bir muhim jihat – u davlatning rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi hujjat sifatida xizmat qilayotganidir. U nafaqat hozirgi kundagi muammolarni hal etishga, balki kelajak avlodlar manfaatini ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy hujjatdir. Shuning uchun ham Konstitutsiya jamiyatning siyosiy barqarorligi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy adolat va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning mustahkam kafolati hisoblanadi.

Bugungi kunda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengaytirmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati kuchaymoqda, ommaviy axborot vositalarining erkinligi ta'minlanmoqda, jamoatchilik nazorati kuchaymoqda.

Bularning barchasi Konstitutsiyaning amaldagi hayotda faol ishlayotganini ko'rsatadi. Konstitutsiya jahon tajribasida yozilgan, ilg'or va takomillashgan qomusdir. U huquqiy – demokratik davlatning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Demokratlashtirish jarayoni davlat hokimiyatining shunday tashkil etilishini nazarda tutadiki, u hokimiyatdagi barcha bo'g'inlarning uyg'un faoliyati bilan ajralib turadi. Qonunning ustunligi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini hal etishdagi faol ishtiroki orqali ularning huquq va erkinliklari kafolatini ta'minlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: „Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyo qarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh Qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir". Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy – huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotini tarixiy muhim bosqichda davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Jumladan, Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir. Davlatning „O'zbekiston Respublikasi" va „O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatishi belgilab qo'yilgan. Mazkur normaning mantiqiy davomi va kafolati sifatida referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va

dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi - ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi. ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Bu O'zbekiston Respublikasi 14-moddasi: „Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi“. Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi. Yangi O'zbekistonda inson huquqlari ta'minlash bo'yicha ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi to'g'risidagi Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020 –yil 22-iyundagi 6012-son farmoniga ko'ra O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, 2017-2021-yillarda O'zbekiston rivojlanishining 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini ta'minlash yuzasidan turli muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va

huquqni ta'minlash amaliyotiga tizimli hamda impelatsiya qo'llanmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, inson huquqlarini ta'minlash borasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan „Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ ning O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqbolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Konstitutsiya nafaqat davlatning oliy huquqiy hujjati, balki jamiyat hayotini tartibga soluvchi, inson va fuqarolarning manfaatlariga xizmat qiluvchi tirik huquqiy hujjat sifatida amalda ishlaydi. Yangi O'zbekiston strategiyasining markazida inson manfaatlarini turadi. „Inson – jamiyat – davlat“ tamoyili bugungi konstitutsiyaviy siyosatning asosiy g'oyasiga aylangan bo'lib, fuqaro huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasi va davlat boshqaruvida faol ishtirokini kafolatlashni anglatadi. Shuningdek, Konstitutsiya davlatning rivojlanish strategiyasini belgilovchi hujjat sifatida xizmat qiladi va nafaqat hozirgi kundagi muammolarni hal etishga, balki kelajak avlodlar manfaatini himoya qilishga yo'naltirilgan. Konstitutsiya demokratik boshqaruvni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash orqali jamiyatdagi adolat, birdamlik va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga asos yaratadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy barqarorligini mustahkamlab, milliy davlatchilik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Shu bois, Konstitutsiya nafaqat qoidalar to'plami, balki mamlakatimizni rivojlantirishning asosiy yo'l xaritasi va fuqarolar manfaatlarini ta'minlovchi mustahkam poydevor sifatida ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o'rnini va davlat qurilishidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiya nafaqat davlatning huquqiy poydevorini mustahkamlash, balki fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini himoya qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar demokratik boshqaruvning samaradorligini oshirish, davlat organlarining xalq oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi strategik hujjat sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi va "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Natijada, Konstitutsiya jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruvning samarali mexanizmi sifatida ishlar qilmogda, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Konstitutsiya davlatning rivojlanish strategiyasini belgilovchi huquqiy "yo'l xaritasi" bo'lib, milliy davlatchilikni mustahkamlash, xalqaro standartlarga moslash va demokratik tamoyillarni mustahkamlashda asosiy hujjat sifatida namoyon bo'ladi.

Munozara. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi roli va ahamiyati haqida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiya nafaqat normativ-huquqiy hujjat sifatida, balki amaliy hayotda davlat va jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish,

shuningdek, davlat hokimiyati organlari faoliyatining xalq oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish Konstitutsiyaning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Munozara natijalari shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar, xususan, xalq hokimiyati mexanizmlarini yanada takomillashtirish va demokratik tamoyillarni mustahkamlash borasidagi normalar, amaliy hayotda o'z natijasini bermoqda. Ushbu o'zgarishlar nafaqat davlat boshqaruvi tizimini samarali qilmoqda, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolatni kuchaytirish va inson manfaatlarini ustuvor qo'yishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot qomusi" yondashuvi asosida Konstitutsiya davlat strategiyasini belgilovchi huquqiy yo'l xaritasi sifatida ham ahamiyatli ekanligi muhokama qilinadi. Bu esa, davlat islohotlarini tizimli va samarali amalga oshirishga, milliy davlatchilikni mustahkamlashga, xalqaro standartlarga moslashishga imkon beradi. Shu bilan birga, Konstitutsiya fuqarolarni davlat boshqaruviga faol jalb qilish orqali demokratik boshqaruvning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, munozara shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiya nafaqat huquqiy asos, balki amaliyotdagi "tirik hujjat" sifatida fuqarolar hayotining sifatini oshirish, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Konstitutsiya – bu shunchaki huquqiy hujjat emas, balki millatning siyosiy irodasi, xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, taraqqiyotga intilishini ifodalovchi muhim manbadir. U Yangi O'zbekistonni barpo etishda, jamiyat hayotini demokratik asosda rivojlantirishda yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu

bois, Konstitutsiyani chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyatini anglash va unga amal qilish har bir fuqaroning muqaddas burchiga aylanishi lozim. Konstitutsiya jahon tajribasida yozilgan, ilg'or va takomillashgan Qomusdir. U huquqiy, demokratik davlatning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiyamizning qanchalar mukammal ishlab chiqilishi, mamlakatda amal qilinishi va ayniqsa, xalq manfaatlariga xizmat qilayotganligi yurtdoshlarimizning ertangi kuni porloqligidan dalolat beradi. U mustaqillik, ozodlik va xalqparvarlik g'oyalari bilan sug'orilib, kelajakda O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishini

ta'minlashga qodirdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zbek xalqining tarixi, madaniy me'rosi, milliy an'analari, qadriyatlari, azaliy udumlari, ildizlariga tayanilgan jahon tajribasi, umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar, qoidalar bilan hamohang tarzda yaratilgan. Konstitutsiya inson manfaatlarini ko'zlovchi yuksak tayanch, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda asosiy me'zondir. Bugungi kunda uni o'rganish, mazmun-mohiyatini to'la anglash va unga qat'iy amal qilish har birimiz uchun zaruriy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya bo'yicha qaror va farmonlari to'plami. — Toshkent, 2022.
2. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 22-iyundagi TS-6012 farmoni 1-ilova
3. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 08.05.2023-yildagi PF-67-son
4. „Turkiston – press” Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasining “Inson huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.
6. Konstitutsiya „O'zbekiston” Toshkent-2023
7. Constitutsion.uz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
8. Karimov I.a. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.